

XITOIY VA ÒZBEKISTON MUNOSABATLARI

Mirzayeva Surayyo

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti 4-kurs 312-guruh talabasi

Annatsiya: O‘zbekiston va Xitoy hukumati, vazirlik va idoralari, qolaversa, tadqiqodchi olimlar o‘rtasida hamkorlik aloqalari keng yo‘lga qo‘yilgan. Xitoylik olimlar O‘zbekistonning zamonaviy siyosatini va iqtisodiy taraqqiyotini o‘rganishga katta e‘tibor qaratmoqda. Ayniqsa, Prezident Sh.Mirziyoyevning siyosiy faoliyatiga va olib borayotgan islohotlariga katta qiziqish bilan kuzatmoqda. Masalan, 2019-yil dekabr oyida Xitoy xalqaro muammolar akademiyasida “Prezident Shavkat Mirziyoyev — O‘zbekistondagi islohotlar davrining me‘mori” nomli kitobi chop etilgan. Asarda Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekistonning zamonaviy rivojlanishi va kelajagi yuzasidan strategik qarashlari, davlatimiz rahbarining Markaziy Osiyo mintaqasi, SHHT va Yevroosiyo hududida xavfsizlik va taraqqiyot ta‘minlanishida tutayotgan faol o‘rni o‘z ifodasini topgan. O‘zbekiston taraqqiyotining o‘svuchanligi, mamlakatimiz ichki va tashqi siyosatida tarixan qisqa davrda amalga oshirilgan izchil o‘zgarishlar haqidagi ma‘lumotlar xitoylik kitobxonlarning e‘tiboriga havola qilindi.

Kalit so‘zi: O‘zbekiston va Xitoy, Prezident Sh.Mirziyoyev, Yevroosiyo, Markaziy Osiyo, Chjan Syan, Samarqand, Hamkorlik

Kirish: **O‘zbekiston — Xitoy Xalq Respublikasi munosabatlari** — O‘zbekiston hududi **Buyuk ipak yo‘lining** chorrahasi bo‘lganligi tufayli ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar bir necha ming yillik tarixga ega. Ammo birinchi Xitoy elchisi Chjan Syanning qad. Farg‘ona (Davan, Dayyuan) davlatiga kelishi mil. av. 128-yilda yuz bergan. Ushbu voqeani ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik aloqaning boshlanishi deb hisoblash mumkin. Elchi vataniga qaytib borgandan so‘ng, xitoyliklar nafaqat Farg‘ona, balki butun O‘rta Osiyo haqidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lgan. Shuning uchun ular elchini g‘arbga boradigan **Buyuk ipak yo‘lini** ochgan shaxs deb bilishadi. Chjan Syandan keyin hoz. O‘zbekiston hududiga kelib ketgan elchilar va budda rohiblarining soni ko‘paygan. Qadim zamondan beri O‘zbekiston va X. o‘rtasida ijobiy ahamiyatga ega bo‘lgan savdo va b. munosabatlar rivojlangan. Shu bilan birga ikki mamlakat o‘rtasida noxush damlar ham bo‘lib o‘tgan. Masalan, X.da tezlik vositasi va boylik mezoni hisoblangan Farg‘ona tulporlarini qo‘lga kiritish maqsadida Xan imperiyasi qo‘shinlarining Farg‘onaga qilgan urushi (mil. av. 104—100) va Tan imperiyasi armiyasining Toshkentga qilgan harbiy yurishi (658) bunga

misoldir. Aloqalarning rivojlanishi bilan birga uzum, shaftoli, mosh, piyoz, oshqovoq kabi mevasabzavotlar va tandır noni, somsa kabi oziq-ovqatlarning yurtimiz va qo‘shni davlatlardan X.ga tarqalishi kuzatilgan. O‘tgan o‘rta va qad. asrlarda hoz. O‘zbekiston hududida yashagan ko‘p kishilar X.ga borib faoliyat ko‘rsatganlar. Ular nafaqat savdo ishlarida, balki qurilish, fan va texnika sohasida ham nom chiqarishgan. Ayniqsa, X.da tashkil topgan va Yuan deb nomlangan mo‘gullar sulolasi davri (1279—1368)da Mahmud Yalavoch, Umar Shamsiddin va b. davlat ishlarida, Jamoliddin Buxoriy, Kamoliddin, Muhammad Buxoriy, xorazmlik Ahmad Fanakatiy va b. matematika va astronomiya sohasida ulkan ishlar qilib, X.da mashhur bo‘lganlar. 13—14-asrlarda bir qator tabiblar X.da faoliyat ko‘rsatgan, ular yordamida Ibn Smonning "Tib qonunlari" xitoy tiliga tarjima qilingan va u xitoy tabobati durdonasi hisoblangan "Xueyxuey yaofan" ("Musulmon dorivorlari") hamda "Bentsao ganmu" ("Giyoh dorivorlar qonuni") asarlarining yaratilishida asos bo‘lgan. O‘zbekistonliklar X.da islomning tarqalishiga ham katta hissa qo‘shishgan. Shu zamonlarda Samarqanddan borgan va o‘g‘uz qabilasining solor urug‘i avlodidan bo‘lgan 40 dan ortiq oila Sinxay viloyatiga borib joylashgan. Ularning avlodi ko‘payib hozir XXRda mavjud bo‘lgan 56 xalq (millat) ning birini tashkil qiladi.

1368-yil hokimiyat tepasiga kelgan Min sulolasi davrida **Buyuk ipak yo‘li** orqali amalga oshiriladigan X. va Turkiston o‘rtasidagi aloqalar biroz susaydi. Ammo Temuriylar davrida bu aloqalar yana jonlandi.

1950-yildan O‘zbekiston X.ning SintszyanUyg‘ur muxtor rniga kadrlar tayyorlash, mahalliy aholini uyg‘ur, qozoq tillaridagi adabiyot va o‘quv kitoblari bilan ta‘minlash, tibbiy yordam ko‘rsatish, yer osti boyliklarni aniqlash, irrigatsiya tizimini yaxshilash bo‘yicha katta yordam ko‘rsatdi. Adabiyotlarni nashr qilish uchun Toshkentda maxsus tahririyat, kadrlar tayyorlash uchun O‘rta Osiyo davlat universiteti (hoz. O‘zbekiston milliy universiteti)da maxsus kafedra tashkil etildi. 1978-yildan O‘zbekiston talabalari X.ga til o‘rganish uchun yuborildi. Toshkentda termos ishlab chiqaruvchi X.O‘zbekiston qo‘shma korxonasi tashkil etildi (1987). Shu yili Uzbekistanga XXRning birinchi rasmiy delegatsiyasi tashrif buyurdi. 1990-yil noyabr da SintszyanUyg‘ur muxtor rni raisi Temur Davomat Toshkentga keldi. 1991-yil iyunda ilk bor O‘zbekistonning rasmiy delegatsiyasi Urumchiga bordi. Ikki davlat o‘rtasida savdo va turistik aloqalar jonlandi.

1991-yil XXR O‘zbekiston mustaqilligini tan olib 1992-yil Diplomatiya munosabatlari o‘rnatilgach, ikki mamlakat o‘rtasida teng huquqli aloqalar o‘rnatila boshladi. O‘tgan 13-yil davomida ikki davlat o‘rtasida 100 dan ortiq rasmiy hujjatlar imzolandi. 1992-yil 15 oktabrda Toshkentda XXR elchixonasi, 1995-yil 6 mayda

Pekinda O‘zbekiston elchixonasi ochildi. Shu davr davomida O‘zR Prezidenti I. Karimov 4 marta (1992, 1994, 1999, 2001-yil) rasmiy tashrif bilan X.da bo‘ldi. Ilk bor rasmiy tashrif bilan 1995-yil O‘zbekistonga XXR Davlat kengashi boshlig‘i Li Pen kelgan. XXR raisi Szyan Szemin (1996) va uning o‘rnini egallagan Xu Szintao (2004)lar ham rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonga keldilar. Xu Szintao XXR raisining o‘rinbosari sifatida 1995-yilda ham O‘zbekistonda bo‘lgan. Bundan tashqari, o‘tgan davr davomida ikki davlat tashqi ishlar vazirlari, Vazirlar Mahkamasi rahbar xodimlari, Parlament delegatsiyalari va b.ning o‘zaro tashriflari amalga oshirildi. 1994-yilda ikki mamlakat o‘rtasida tuzilgan savdoiktisodiy hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo komissiya doimiy faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Xu Szintaoning 2004-yil iyundagi O‘zRga tashrifi chog‘ida O‘zbekiston bilan Xitoy o‘rtasida sheriklik munosabatlari, do‘stlik va hamkorlikni yanada rivojlantirish va mustahkamlash to‘g‘risida ko‘shma deklaratsiya, shuningdek, narkotik vositalarning, psixotrop moddalarning noqununiy aylanishi va suiiste‘mol etilishiga qarshi kurashda xamkorlik qilishga, texnikaviyiktisodiy hamkorlikka oid bitimlar imzolandi. 2003-yil ikki tomon tovar ayirboshlash hajmi 216 mln. AQSH dollariga teng bo‘ldi. Shundan O‘zbekistonning XXRga qilgan eksporta 53 mln., importi 163 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston bozorlarida X. mollarning ko‘payganligini kuzatish mumkin. X.dan O‘zbekistonga texnika, elektronika, elektr jihozlari, kofe, xalq iste‘mol mollari, choy va ziravor, optika priborlari va apparatlari, transport vositalari, to‘qimachilik mahsulotlari, kiyimkechak, poyabzal va b. keltiriladi. O‘zbekiston X.ga ranggi metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar, mineral yonilg‘i, neft va neft mahsulotlari, paxta va ipak tolasi, plastmassa va b. yuboradi. Ayni vaktida O‘zbekistonda X. investorlari ishtirokida tuzilgan 122 korxonalar ro‘yxatdan o‘tgan. Shulardan 102 tasi qo‘shma korxonalar, 20 tasi 100% X. sarmoyasi hisobidagi korxonadir. Respublikada X. ning savdo hamda X. kompaniyalarining 23 vakolatxonasi faoliyat ko‘rsatmoqda. X.ning O‘zbekistonga kiritilgan sarmoyasi hajmi 435 mln. AQSH dollarini tashkil etadi. Ikki mamlakat o‘rtasida madaniyat, fan, texnika va ta‘lim sohasida ham hamkorlik rivojlanmoqda. X. vakillari Samarqandda o‘tkaziladigan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalida, O‘zbekiston folklor jamoalari Pekinda har yili o‘tadigan xalqaro madaniyat va turizm festivalida muntazam ishtirok etadilar. 1996-yil Pekinda O‘zR Fanlar akademiyasi bilan XXR Fanlar akademiyasi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida, 2000-yil Toshkentda O‘zR Fanlar akademiyasi bilan XXR Ijtimoiy FA o‘rtasida bitim imzolandi. 1997-yil O‘zR Prezidenti I. Karimovning "O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asari X.da xitoy tiliga tarjima kilinib chop etildi.

Shu yil O‘zbekistonga bag‘ishlangan maxsus jur. va 2004-yil kitob nashrdan chikdi. Toshkent bilan Shanxay sh.lari, Buxoro viloyati bilan Xubey provinsiyasi, Toshkent viloyati bilan Shansi provinsiyasi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik munosabatlari o‘rnatilgan. 2000-yilda ilmiytexnika hamkorligi bo‘yicha maxsus qo‘mita tashkil etilgan. 2001-yil Toshkentda X. madaniy markazi tashkil topdi. 2002-yilda Toshkentda "XXR fani va texnikasi kunlari" deb nomlangan ko‘rgazma bo‘lib o‘tdi. 2003-yil Chanchun (Szilin o‘lkasi) sh.da Kamoliddin Behzodning haykali o‘rnatildi. 2004-yilda Pekinda O‘zbekiston — XXR munosabatlariga bag‘ishlangan ilmiy anjuman, Toshkentda xitoy madaniyati kunlari o‘tkazildi. Ikki davlat o‘rtasida talabalar almashuvi ham amalga oshirilmogda. 2004-yil iyunda O‘zbekiston Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi bilan Xitoy ta‘lim vazirligi o‘rtasida Toshkentda xitoy tilini o‘rganish bo‘yicha Konfutsiy nomidagi institutni tashkil etish to‘g‘risida bitim imzolandi.

2001-yilda O‘zbekiston Shanxay hamkorlik tashkilotiga a‘zo bo‘lgandan beri ushbu tashkilot doirasidagi munosabatlar rivojlanmogda. Ayniqsa, terrorizmga qarshi kurash va Urta Osiyoda xavfsizlikni ta‘minlash sohasida ikki tomonlama hamkorlik kengaymogda. Mazkur tashkilotning yuridik asoslarini ishlab chiqish va uning amaliy vazifalarini belgilashda O‘zbekiston faol ishtirok etdi. 2004. iyunda Toshkentda ushbu tashkilotning navbatdagi sammiti bo‘lib o‘tdi va unda mintaqaviy aksilterroristik markazning ijroiyy qo‘mitasi rasman ochildi.

2004-yildan O‘zbekiston va XXRning SintszyanUyg‘ur muxtor rni televideniye kompaniyalari o‘rtasida hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Toshkent telestudiyasi XXR haqida, Urumchi telestudiyasi O‘zbekiston haqida ko‘rsatuvlar olib bormogda. Sport sohasida ham ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar mavjud. Ikki tomonlama hamkorlikning rivojlanishiga 1998-yil 1 dekabrda tuzilgan "O‘zbekiston — Xitoy" do‘stlik jamiyati munosib hissa qo‘shib kelmogda.

2017-yilning 12-mayida Sh.Mirziyoyevning Xitoyga tashrifi o‘zaro hamkorlikning mutlaqo yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur tashrif davomida ikki davlat rahbarlari tomonidan har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yana-da chuqurlashtirish to‘g‘risida qo‘shma bayonot, shuningdek, turli darajadagi 100 dan ziyod hujjat imzolandi.

2018-yildagi tashrif davomida Sh.Mirziyoyev Shanhay Hamkorlik Tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining Sindao shahrida o‘tkazilgan o‘n sakkizinchi majlisida so‘zlagan nutqida muhim va dolzarb takliflarni ilgari surdi. Jumladan, aholi, ayniqsa, yosh avlodda terrorizm va ekstremizm mafkurasiga qarshi qat‘iy va barqaror immunitetni shakllantirish, savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish,

kooperatsiyani kuchaytirishga ahamiyat qaratildi. Tomonlarga SHHT makonining transport-tranzit salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyati berildi.

Innovatsiya dasturlari va loyihalarini hamkorlikda amalga oshirish uchun barcha sa'y-harakatlarni birlashtirish maqsad qilib olindi. Jahon sayyohlik tashkiloti bilan amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish imkoniyatlari kengaydi. Mazkur takliflar doirasida bugungi kunda SHHTga a'zo davlatlar bilan birgalikda ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda.

Umuman, O'zbekiston va Xitoy hukumati, vazirlik va idoralari, qolaversa, tadqiqodchi olimlar o'rtasida hamkorlik aloqalari keng yo'lga qo'yilgan. Xitoylik olimlar O'zbekistonning zamonaviy siyosatini va iqtisodiy taraqqiyotini o'rganishga katta e'tibor qaratmoqda. Ayniqsa, Prezident Sh.Mirziyoyevning siyosiy faoliyatiga va olib borayotgan islohotlariga katta qiziqish bilan kuzatmoqda. Masalan, 2019-yil dekabr oyida Xitoy xalqaro muammolar akademiyasida "Prezident Shavkat Mirziyoyev — O'zbekistondagi islohotlar davrining me'mori" nomli kitobi chop etilgan. Asarda Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekistonning zamonaviy rivojlanishi va kelajagi yuzasidan strategik qarashlari, davlatimiz rahbarining Markaziy Osiyo mintaqasi, SHHT va Yevroosiyo hududida xavfsizlik va taraqqiyot ta'minlanishida tutayotgan faol o'rni o'z ifodasini topgan. O'zbekiston taraqqiyotining o'suvchanligi, mamlakatimiz ichki va tashqi siyosatida tarixan qisqa davrda amalga oshirilgan izchil o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlar xitoylik kitobxonlarning e'tiboriga havola qilindi.

Madaniy-ma'rifiy, fan va ta'lim sohalarida ikki mamlakat o'rtasida ko'plab tadbirlar va samarali loyihalar amalga oshirilmoqda. 2016-yili Xitoy hukumat rahbari Si Szinpin O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamrohligida Buxoroga tashrif buyurdi va u yerdagi madaniy yodgorliklar bilan tanishdi.

Shundan so'ng, tomonlar o'rtasida ikki mamlakatning ijtimoiy gumanitar va madaniy aloqalari bo'yicha hamkorlikni yana-da kuchaytirishga qaror qilindi. Buxoro va Xitoyning Luo Yang shahri o'rtoqlik shaharlari deb e'lon qilindi. Qolaversa, Toshkent va Shanxay, Samarqand va Sian shaharlari ham o'rtoqlik shaharlari kelishuvi asosida turli sohalarda hamkorlik olib bormoqda.

Xitoy va O'zbekistonda mamlakat madaniyati kunlari, ko'rgazmalar, konsertlar, kino festivallari muntazam o'tkazib turiladi. Jumladan, 2019-yilning 24-27-dekabr kunlari Xitoyning Pekin shahrida "Ipak yo'li gavhariga sayohat" mavzusida O'zbekiston madaniyati kuni o'tkazildi. O'zbekiston davlat filarmoniyasi Buxoro viloyat bo'limining "Buxoro mavjlari" va "Buxoro go'zallari" ansambllari o'zlarining mazmunli dasturlari bilan ishtirok etdi.

Xitoylik san'at vakillarining O'zbekiston madaniyati va san'atiga qiziqishlarini juda ko'p tadbirlar orqali kuzatish mumkin. Masalan, O'zbek madaniyati namoyandasiga Xitoyda o'rnatilgan ilk haykal 2003-yilda Xitoyning Chanchun shahrida o'tgan 6-jahon haykaltaroshlari forumi doirasida buyuk rassom, miniatyurachi Kamoliddin Behzod haykalidir.

2017-yilda Shanxay universitetida buyuk mutafakkir Alisher Navoiy haykali o'rnatildi. Xitoyning bir qator yirik shaharlarida "O'zbekistonning taniqli rassomlari asarlari" badiiy ko'rgazmalari tashkil etildi.

Nomoddiy madaniy yodgorliklarni, tarixiy obidalarni saqlab qolish va ta'mirlash bo'yicha ham Xitoy va O'zbekiston olimlari yaqindan hamkorlik qilmoqda. 2018-yilda Toshkentda "Bir belbog' bir yo'l" madaniy yodgorliklarni asrash texnikasi xalqaro konferensiyasi bo'lib o'tdi. O'zbekiston, Xitoy, Qozoqiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkiya olimlari o'zaro hamkorlikda davra suhbatini o'tkazdilar. Konferensiyada Xiva shahrining tarixiy obidalarini asrashga olimlar tomonidan katta e'tibor qaratildi. Ta'lim sohasida davlatlar va idoralararo, jumladan, o'zbek va xitoy tillarini o'rganish doirasida talaba va tadqiqotchilar almashish tobora ko'paymoqda. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti va Samarqanda chet tillari universitetlari qoshida Konfutsiy nomidagi institutlar ochildi. Unda har yili 350 dan ziyod tinglovchi xitoy tilini o'rganadi.

Butun dunyoda keng tarqalib barcha sohaga o'z ta'sirini ko'rsatayotgan COVID-19 pandemiyasi Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikning ham ko'plab tarmoqlariga o'z ta'sirini ko'rsatsa-da, mamlakatlar buning oldini olish va o'zaro aloqalarni yana-da mustahkamlash maqsadida ko'plab loyihalarni amalga oshirmoqda.

XULOSA: O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi diplomatik munosabatlar (1992-yil 2-yanvar) o'rnatilganiga 29 yil bo'ldi. Nafaqat strategik sherik davlatlar sifatida ikki tomonlama munosabatlar, balki "Bir belbog' bir yo'l" tashabbusi va Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, shuningdek, boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida ham ko'p tomonlama hamkorlik aloqalari jadal rivojlanmoqda. Xitoy "Bir belbog' bir yo'l" tashabbusining Markaziy Osiyoga tegishli bo'lgan "Ipak yo'li iqtisodiy belbog'i" loyihasi doirasida O'zbekiston bilan hamkorlik aloqalarini izchil davom ettirmoqda.

Foydalanilgan internet saytlar:

1. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг

долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/6)

2. Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2023). MARKAZIY OSIYODA ARABLAR BILAN BOG'LIQ IJTIMOIIY QATLAMLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 1048-1052.

3. Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2022). ARABISTON YARIM OROLIDA DAVLATCHILIKNING SHAKLLANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10), 118-121.